O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Ro‘yxatga olindi:
№ BD 32
2025 yil “28 avgust”.

“TASDIQLAYMAN”
[illegible] davlat
[illegible] rektori
[illegible] Ne[illegible]matova

IQTISODIY VA IJTIMOIY GEOGRAFIYA FANINING O‘QUV DASTURI
(kunduzgi, kechki)

Bilim sohasi:	500000 – Tabiiy fanlar, matematika va statistika
Ta’lim sohasi:	530000 – Fizika va tabiiy fanlar
Ta’lim yo‘nalishi:	60530200 – Geografiya

Samarqand – 2025

Fan/mavzu kodi	O‘quv yili	Semestr	Kreditlar
II1206	2025-2026	2	4

Fan/mavzu turi	Ta’lim tili	Haftadagi dars soatlari
Majburiy	O‘zbek	4

1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya	48 (24/24)	72	120

2.

I. Fanning mazmuni

Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarda iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning nazariy-metodologik va amaliy asoslari (tushunchalar, qonuniyatlar, tadqiqot usullari va boshqalar) to‘g‘risidagi bilimlarni shakllantirish hamda ularni amaliyotda tatbiq etish ko‘nikmasini hosil qilishdan iborat.

Fanning vazifasi – talabalarda iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning fanlar tizimida tutgan o‘rni, geografiyaning ijtimoiy tarmog‘ini obyekti va predmeti, shakllanishi va rivojlanishi, zamonaviy tuzilishi, iqtisodiy-ijtimoiy geografik jarayonlarni o‘rganishda qiyosiy geografik usulni qo‘llay olishini, jamiyatning turli jabhalari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik va geografik aloqadorlikni aniqlay olish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat.

II. Nazariy qism (mashg‘ulotlari)
Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:
Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaga kirish, Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning fanlar tizimida tutgan o‘rni

Fanning tadqiqot obyekti va predmeti o‘rtasidagi bog‘liqlik va farqlar. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining tadqiqot obyekti va predmeti. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning tadqiqot obyekti va predmeti bo‘yicha geograflarning turlicha qarashlari. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning alohida tarmoqlarining tadqiqot obyekti va predmeti. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning keng va tor ma’nolari.

Geografik fanlar tizimi: tabiiy geografiya, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, umumgeografik fanlar, “oraliq” fanlar. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning fanlar tizimida tutgan o‘rni va boshqa fanlar bilan aloqalari. Geografiyaning ijtimoiy qanotining nomlanishi: iqtisodiy geografiya, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, inson geografiyasi, ijtimoiy geografiya. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning ichki tuzilishi.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining rivojlanish tarixi, Fanning tadqiqot usullari

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining tarixiy shakllanishi. “Iqtisodiy geografiya” atamasi va uning fan sifatida shakllanishi. Statistikaning iqtisodiy geografiya asosi sifatida. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining shakllanishi, uning uch tarkibiy qismi va predmetiga uch xil yondashuv. Harbiy geografiya. Iqtisodiy geografiya fanining frontal rivojlanishi.

Tadqiqot usuli haqida umumiy tushuncha. Universal (umumiy yoki falsafiy) fikrlash usullari va tamoyillari. Umumgeografik metodlar (rayonlashtirish, geografik taqqoslash, kartografik, ekspeditsiya, modellashtirish, tarixiy tahlil, ekspert baholash), asosan Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaga xizmat qiluvchi metodlar (statistik tahlil, energiya ishlab chiqarish sikllari), boshqa metodlar (klassifikatsiya va tipologiya, tizim-tarkib, maqsadga muammoli yondashuv, maqsadga dasturli yondashuv, anketa-so‘rovnoma, Delfi metodi, ekstropolyatsiya, yosh siljitish metodi, intervyu, SWOT-tahlil).

Ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirishning

klassik nazariyalari, Iqtisodiy geografiyaning asosiy ustun tushunchalari

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish. Qiyosiy imtiyoz va solishtirma afzallik nazariyasi (A.Smidt, D.Rikardo; E.Xeksher, B.Olin), Qishloq xo‘jaligini halqasimon joylashtirish nazariyasi (I.Tyunon), Ishlab chiqarishni samarali joylashtirish nazariyasi (V.Luanxard), Shtandort nazariyasi (A.Veber), “Markaziy o‘rinlar” nazariyasi (V.Kristaller), Iqtisodiy landshaft nazariyasi (A.Lyosh), “O‘sish qutblari” va rivojlanish markazlari nazariyasi (F.Perru), “Uzun to‘lqinlar” nazariyasi (N.Kondratyev), Energiya ishlab chiqarish sikllari (N.Kolosovskiy), Sivilizatsiyalar nazariyasi (I.Mechnikov), Resurs sikllari nazariyasi (I.Komar), Geografik konveyr (K.Ivanov), Yangi iqtisodiy geografiya nazariyasi(P.Krugman).

Iqtisodiy geografik o‘rin – Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning kalit tushunchasi. Hududiy mehnat taqsimoti – fundamental tushuncha. Hududiy ishlab chiqarish majmualari – konstruktiv tushuncha. Rayonlashtirish – birlamchi tushuncha sifatida. Ma’muriy-hududiy bo‘linish. Iqtisodiy geografik jarayon. Iqtisodiy geografik vaziyat.

Ishlab chiqarishning ijtimoiy va hududiy tashkil etish shakllari,
Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishga ta’sir etuvchi omillar

Ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirish qonuniyatlari va prinsiplari. Ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirishning ijtimoiy (mujassamlashuv, ixtisoslashuv, kooperatsiya, kombinatsiya) va hududiy (sanoat korxonasi, sanoat punkti, sanoat markazi, sanoat aglomeratsiyasi, sanoat rayoni, sanoat parki) tashkil etish shakllari.

Ishlab chiqarishni joylashtirish ma’lum qonuniyat, prinsip va omillar asosida amalga oshiriladi. Tabiiy geografik omillar (tabiiy sharoit va agroiqlimiy resurslar, yer-suv,), iqtisodiy geografik omillar (iqtisodiy geogarik o‘rin, xomashyo, yoqilg‘i, elektr quvvati, transport, ilmiy texnik taraqqiyot, infrastruktura), ijtimoiy omillar (mehnat resurslari, iste’mol, bozor iqtisodiyoti), ekologik omillar (ekologik).

Tabiiy resurslar geografiyasi, Qurilish tarmoqlari geografiyasi

Tabiiy sharoit va resurslarning ijtimoiy-iqtisodiy geografik ahamiyati. Tabiiy resurslar (genetik, ekologik, potensial va foydalanish bo‘yicha) tasnifi. Resurslar klassifikatsiyasi (Yer, suv, agroiqlimiy, biologik, mineral). Resurslarni iqtisodiy geografik baholash. Resurs bilan ta’minlanganlik (necha yillarga yetishi, aholi jon boshiga to‘g‘ri kelish) darajasi. Yer resurslarini sifat jihatidan qiyosiy baholash. Tuproq bonitirovkasining ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishdagi ahamiyati. Rekreatsiya va bolneologik resurslar.

Qurilish tarmoqlari geografiyasining obyekti va predmeti. Kapital qurilishning asosiy masalalari – qurilishning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli va o‘rni, uning geografik xususiyatlari, tarmoqlararo aloqalari, boshqaruv tizimi, bozor munosabatlarini rivojlantirish sharoitlarida qurilish iqtisodiyotini isloh qilish muammolari. Qurilish faoliyatini ishlab chiqarish birliklari miqyosida rejalashtirishning xususiyatlari, qurilish industriyasining resurs va ishlab chiqarish salohiyati, qurilishda fan-texnika taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlari hamda uni baholash usullari, qurilishda narxning shakllanishi, foyda va rentabellik masalalari. Joyning tog‘lilik koeffitsiyenti.

Aholi – Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning obyekti sifatida

Aholi geografiyasi va geodemografiyaning o‘xshash va farqli jihatlari. Aholi soni, uning tadrijiy o‘zgarishi, tarkibi va joylashuvi xususiyatlari, ularga ta’sir etuvchi omillar, aholi punktlarining hududiy tizimlari va ularning rivojlanish qonuniyatlari. Diniy va milliy tarkibi. Zichlik va uni aniqlash usullari. Umumiy va “sof” zichlik. Zichlik va hudud imkoniyatlaridan foydalanish. Joyning demografik sig‘imi. Aholining yosh kategoriyalarga bo‘linishi. Yoshlar bo‘yicha aholining “piramidal” tarkibi. Aholi tarkibining “qarib” va “yosharib” borishi. Respublika aholisining milliy tarkibi va undagi o‘zgarishlar. Geodemografik to‘lqinlar.

Global migratsion jarayonlar, Geourbanistika

Aholi migratsiyasi va uning sabablari. Hozirgi zamon global migratsion jarayonlarning geografik manzarasi. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda migrantlarni jalb qiluvchi asosiy markazlar. Asosiy migratsion oqimlar. Globalizatsiya. Mintaqaviy iqtisodiy integratsiya. Migratsiyaning salbiy va ijobiy oqibatlari.

Shaharlar geografiyasi iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning eng faol va yetakchi tarmog‘i sifatida. Shaharlarni iqtisodiy geografik o‘rganish. Shaharlarning funksiyalari va tasnifi. Aholi sonining shahar va qishloq joylarida o‘sish xususiyatlari. Urbanizatsiya jarayoni va uning ko‘rinishlari. Megapolis, aglomeratsiya va megalopolis.

Sanoat geografiyasi, Qishloq xo‘jaligi geografiyasi

Sanoatning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o‘rni va ahamiyati. Sanoat tarmoqlarini tadqiq etish usullari. Sanoatni joylashtirish va rivojlantirishga ta’sir etadigan asosiy omillar. Sanoatning hududiy va tarmoq (yoqilg‘i-energetika, metallurgiya, mashinasozlik, kimyo va neft-kimyo, qurilish, selluloza-o‘rmon, yengil sanoat, oziq-ovqat sanoati) tarkibi. Sanoatni rayonlashtirish.

Qishloq xo‘jaligini ijtimoiy va hududiy tashkil etish xususiyatlari. Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining o‘ziga xos xususiyatlari. Agrosanoat majmuasi, agrosanoat integratsiyasi, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishni rivojlantirish shakllari. Qishloq xo‘jaligi tarmoqlari va ularni joylashtirishga ta’sir etuvchi omillar. Dehqonchilikning joylanishi. Chorvachilikni hududiy tashkil qilish. Qishloq xo‘jaligida foydali yer koeffitsiyenti va uning iqtisodiy geografik ahamiyati.

Transport geografiyasi, Tashqi iqtisodiy aloqalar

Transport turlari haqida tushuncha. O‘zbekistonda rivojlangan transport turlari. TRASEKA loyihasi. Ishlab chiqarishni joylashtirishda transportning roli. Transportning xo‘jalik tizimidagi o‘rni. Transportning asosiy ko‘rsatkichlari. Transport tarmoqlarining joylanish omillari. Transportning quruqlik (temiryo‘l, avtomobil, quvur), suv (dengiz, daryo) va havo transporti kabi ko‘rinishlari. Yuk aylanmasi. Yo‘lovchi aylanmasi. Transport turlari zichligini aniqlash.

Tashqi iqtisodiy aloqalarni tashkil etishning geografik jihatlari. Tashqi savdo aylanmasi (eksport, import), xalqaro mehnat taqsimoti, xalqaro iqtisodiy integratsiya. Tashqi savdo ayirboshlash samaradorligi ko‘rsatkichi. Tashqi iqtisodiy aloqalarning asosiy shakllari. To‘lov balansi. Aktiv va passiv savdo balansi. Xalqaro aloqalarning shakllari (savdo, turizm, ilmiy-texnikaviy hamkorlik, moliya-kredit, transmilliy korporatsiyalar).

Servis geografiyasi, Iqtisodiy geografiya va mintaqaviy iqtisodiyot

Servis geografiya va aholiga xizmat ko‘rsatish geografiyasi. Xizmatlarning davriy tendensiyasi: yo‘qolib ketgan, amaldagi, yo‘qolib ketishi mumkin bo‘lgan, yangi shakllanayotgan xizmatlar. Muassasalarning xizmat ko‘rsatish radiusini aniqlash. Aholini xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojlari va uni qondirilishining hududiy tafovutlari. Xizmat ko‘rsatish markazlari va ularning joylashuvi. Aholiga xizmat ko‘rsatishni shahar va qishloq joylarda hududiy tashkil etilishi va rivojlanishi. Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda aholiga xizmat ko‘rsatish sohalarining roli. Xizmat ko‘rsatish sohalarini raqamlashtirish masalalari.

Iqtisodiy geografiya va mintaqaviy iqtisodiyotning o‘zaro o‘xshash va farqli jihatlari. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda hudud omili. Makroiqtisodiyot tarmoqlarini mintaqaviy tashkil etish masalalari. Hududiylik koeffitsiyenti. . Iqtisodiy geografiya va mintaqaviy iqtisodiyotning zamonaviy muammolari va istiqbolli rivojlanish tendensiyalari.

Siyosiy geografiya va mintaqaviy siyosat, Iqtisodiy geografiya va ekologiya

Mintaqaviy siyosat va geosiyosatning o‘zaro o‘xshash va farqli jihatlari. Mintaqaviy siyosatning maqsad va vazifalari. Geosiyosatning obyekti va predmeti. Klassik geosiyosiy nazariyalar. Reaksion geosiyosiy qarashlar. Zamonaviy geosiyosat asoslari. Mintaqaviy siyosat

“o‘sish qutblari”ni shakllantiruvchi bosh omil sifatida. Mintaqaviy siyosatning tarmoqlar va integral aspektlari.

Ekologiya, uning iqtisodiy va ijtimoiy geografiya bilan aloqasi, asosiy vazifalari. Umumiy ekologiyadan ijtimoiy ekologiyaga. Ijtimoiy ekologiyaning shakllanishi va rivojlanishi. Inson ekologiyasi. Ijtimoiy ekologiyaning tabiiy negizi. Ijtimoiy ekologiyaning mintaqaviy muammolari. Sanoat, transport, qishloq xo‘jaligining geoekologik holatga ta’siri. Inson ekologiyasining demografik jihatlari. Ekologik siyosat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning bir ko‘rinish sifatida. Mintaqaviy ekologik siyosatning xususiyatlari.

O‘zbekistonda Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining rivojlanishi

O‘zbekistonda iqtisodiy–ijtimoiy geografiyaning shakllanish va rivojlanish tarixini davrlashtirish. Respublikada iqtisodiy va ijtimoiy geografiya sohasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning xususiyatlari. Iqtisodiy geografik tadqiqotlarning hududiy tarkibi. O‘zbekiston ta’lim tizimida iqtisodiy va ijtimoiy geografiyani o‘qitishdagi asosiy muammolar. Ilmiy maktablar va markazlar rivojlanishidagi ustivor yo‘nalishlar**.**

III. 1. Amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning zamonaviy tuzilishi, uning boshqa fanlar bilan aloqasini o‘rganish
2. Yangi iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining tarmoq yo‘nalishlari xususiyatlarini o‘rganish
3. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaga xizmat qiluvchi metodlar tahlili
4. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya asoslari fanining shakllanish tarixi
5. Ishlab chiqarishni tashkil etishga ta’sir etuvchi yetakchi omilni aniqlash
6. Hududiy tizimlarni o‘rganishning elementlari va hududiy modellar
7. Inson va tabiat o‘zaro ta’siri haqida yondashuvlar
8. O‘zbekiston foydali qazilmalari xaritasini tuzish
9. Demografik portlash fenomeni.
10. Aholi migratsiyasi va uning ko‘rsatkichlari. Mehnat resurslariga oid ko‘rsatkichlarni ifodalash va aholi sonini prognoz qilish
11. O‘zbekiston aholisining etnik tarkibini tahlil qilish
12. Urbanizatsiya va uning ko‘rsatkichlari
13. Shaharlarlani qulaylik indeksi bo‘yicha baholash
14. Sanoat mahsuloti ishlab chiqarishga ixtisoslashuvini aniqlash
15. Qishloq xo‘jaligi tarmoq tarkibini aniqlash
16. Davlatlarning transport tarmoqlari turlaridan foydalanishini tahlil qilish
17. Transport tarmoqlari bo‘yicha yo‘lovchi va yuk tashish aylanmasini hisoblash
18. Qurilish tarmoqlari joylashtirishni geografik baholash
19. O‘zbekiston tashqi iqtisodiy aloqalarini baholash
20. Aholiga xizmat ko‘rsatishning xizmat ko‘rsatish radiusini va masofasini aniqlash
21. Hozirgi zamon siyosiy kartasini tahlil qilish
22. Insoniyatning global muammolarini tahlil qilish
23. Iqtisodiy rayonlashtirish nuqtai nazaridan ixtisoslashuv darajasini aniqlash

Amaliy mashg‘ulotlar multimedia qurulmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor–o‘qituvchi tomonidan o‘tkazilishi zarur. Mashg‘ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o‘tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo‘llanilishi maqsadga muvofiq.

Amaliy mashg‘ulotlarda mavzularga oid amaliy topshiriqlar bajarish, jadval va diagrammalar to‘ldirish, atlas va yozuvsiz xaritada amaliy topshiriqlar bajarish, masalalar yechish, amaliy kuzatish, o‘lchash, meteorologik asboblar bilan ishlash amallari bajariladi.

IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar

Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar quyidagi turlarda amalga oshirilishi tavsiya etiladi:

- Mavzuni og‘zaki bayon qilish;
- 4 javobli test savoli tayyorlash;
- yozma savol tayyorlash;
- Taqdimot tayyorlash;
- Referat tayyorlash;
- rasmli topshiriq tuzish;
- Ma’lumotlarni jadval ko‘rinishida ifodalash;
- Yozuvsiz xarita bilan ishlash;
- Videorolik tayyorlash;
- Ko‘rgazmali qurol tayyorlash;
- Bir soatlik dars ishanma tayyorlash;
- Krassvord tuzish;
- Xorijiy adabiyotlardan ma'lumotlarni to‘plash, tarjima qilish va tahlil qilish;
- Ha, yo‘q javobli test tuzish;
- Audio dars tayyorlash;
- Internet ma'lumotlarini to‘plash va tahlil qilish;
- Adabiyotlar ro‘yxatini tuzish;

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzulari:

1. Jahon urbanizatsiyasining zamonaviy tendentsiyalari.
2. Buyuk geografik kashfiyotlar va geografiya.
3. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining fanning asosiy tamoyillari.
4. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning XX asrda rivojlanishi xususiyatlari.
5. Iqtisodiy geografiya va mintaqaviy iqtisodiyot, mintaqaviy siyosat va geosiyosat.
6. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining tushuncha va qonuniyatlari, ilmiy tadqiqotlardagi ba’zi kamchiliklar.
7. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining zamonaviy yo‘nalishlari va muammolari.
8. Iqtisodiy geografik o‘rin.
9. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fani shakllanishining uch asosiy manbai va predmetiga uch xil yondashuv
10. Hududiy mehnat taqsimoti.
11. Raqamlashgan davrda iqtisodiy va ijtimoiy geografiya.
12. Hududiy ishlab chiqarish majmualari.
13. Qishloq xo‘jaligini hududiy tashkil etishning klassik nazariyalari.
14. Abdusami Solievning geografiya fani rivojiga qo‘shgan hissasi.
15. Iqtisodiy rayonlashtirish.
16. Aholiga xizmat ko‘rsatish sohalarini hududiy tashkil etishning klassik nazariyalari
17. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishga ta’sir etuvchi tabiiy va iqtisodiy geografik omillar
18. Tabiiy resurslarni iqtisodiy – geografik o‘rganish.
19. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya faining rivojlanishi istiqbollari.
20. Hududiy rejalashtirish va hududiy rivojlanish.
21. Geografik determinizm.
22. Geografiyada possibilizm kontseptsiyasi.
23. Jamiyatni hududiy tashkil etilishi nazariyasi va mintaqaviy rivojlanish.

	24. Demografik siyosat va uning mintaqaviy ko‘rinishlari. 25. Sanoat – milliy iqtisodiyotning lokomativ tarmog‘i sifatida. 26. Mintaqaviy iqtisodiy integratsiya. 27. Tibbiyot geografiyasi. 28. Regional siyosat: mohiyati va mazmuni. A.Temurning xarbiy siyosati. 29. Buyuk ipak yo‘lining iqtisodiy geografik ahamiyati. 30. Global energetika muammosi. 31. Okean resurslaridan foydalanish. 32. Muqobil energiya resurslaridan foydalanish. 33. Qurilish industriyasining tarkibiy tuzilishi va o‘ziga xos xususiyatlari. 34. Qishloq xo‘jaligi tarkibidagi o‘zgarishlar: “Yashil inqilob”, agrobiznes, agrosanoat majmuasi 35. Transport turlari joylashtirishga ta’sir etuvchi omillar, tarmoqlar rivojlanishining tarixiy jihatlari. 36. Tashqi iqtisodiy aloqalarning turlari va o‘ziga xos xususiyatlari 37. Markaziy Osiyoning transchegaraviy ekologik muammolari. 38. Harbiy geografiya. 39. Chorvachilik tarmoqlari geografiyasi 40. Dehqonchilik tarmoqlari geografiyasi. 41. Elektr-energetika sanoati. 42. Metallurgiya sanoati 43. Mashinasozlik sanoati. 44. Chuchuk suvdan foydalanish. 45. Tabiiy resurslar bilan ta’minlanganlik darajasi.
3.	**V. Ta’lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** **Talaba bilish kerak:** Talabalarga iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotga ta’sir etadigan asosiy omillari bo‘yicha, darslik, o‘quv qo‘llanmalar va mahsus adabiyotlardan bilim egallash jarayonida foydalana olishlari, o‘quv ko‘rgazmali vositalar xarita, atlas kabilarni o‘qiy bilish va ulardan foydalana bilishlari, statistik ma’lumotlardan foydalana bilish, ularni tahlil qila bilishlari, jadval kartagrafik, karta-diagrama materiallaridan foydalana bilishlari va ularni tayorlay bilishlari va baholash malakalariga ega bo‘lishi kerak; Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya geografiya fanini tizimlarga bo‘lish, fanga oid asosiy tushuncha, atamalar, qonuniyatlar, ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va ularning joylanishiga ta’sir etuvchi omillar haqida tasavvurga ega bo‘lishi; Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanning mazmuni, mohiyati, obyekti, predmeti, maqsadi va vazifalari, geografiya fanlari tizimini bilishi va ulardan foydalana olishi; Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanini o‘qitishda ta’lim texnologiyalari, elektron plakatlar, tarqatma materiallar, elektron darsliklar va qo‘llanmalar, internet ma’lumotlari, lokal tarmoqdagi turli o‘quv, ilmiy bilimni nazorat qilish bo‘yicha ma’lumotlar jamlamasidan foydalaniladi. Mustaqil ta’lim, aqliy hujum, vaziyatli masalalarni yechish, disskusiya, rolli o‘yinlar, referatlar yozish kabi pedagogik usullar bilan fanning o‘qitilishi amalga oshiriladi va o‘quvchilarni baholay olish to‘g‘risida malakalariga ega bo‘lishi kabi ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak (malaka)
4.	**VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:** • *ma‘ruzalar; interfaol, keys stadi, munozara* • *interfaol keys-stadilar;* • *diologik yondoshuv* • *SWOT tahlili* • *Wenn diagrammasi* • *Bliz so`rov*

	• *nilufar guli* • *baliq skleti* • *kim chaqqon* • *blis so`rov* • *blis test va boshqalar*
5.	**VII. Kreditlarni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va amaliy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, ijod qilish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha amaliy ishni topshirish.
6.	**VIII. Asosiy adabiyotlar** 1. Soliyev A.S., Jumaxanov Sh.Z., Toshpo‘latov A.M. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya [Darslik]. – Namangan, 2024. – 408 b. 2. Soliyev A.S., Komilova N.K., Yanchuk S.L., Jumaxanov Sh.Z., Rajabov F.T. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya [Darslik]: –Toshkent: Noshir, 2019. –B. 512. 3. Komilova N., Jumaxanov Sh. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya metodologiyasi [Darslik]: –Toshkent: Noshir, 2021. –B. 312. 4. Горохов С.А. Общая экономическая, социальная и политическая география. Учебное пособие / С.А. Горохов, Н.Н. Роготень. –М.: Юнити, 2018. – 192 с. 5. Голубчик М. М., Макар С. В., Носонов А. М., Файбусович Э. Л. Социально-экономическая география: учебник для вузов. – 3-е изд., перераб. и доп. – Москва: Издательство Юрайт, 2025. – 517 с. – ISBN 978-5-534-17761-9. 6. Солиев А.С. Иқтисодий география: назария, методика ва амалиёти [Матн]: танланган асарлар / А.Солиев; масъул муҳаррир: О.Б.Ота-Мирзаев. – Т.: Камалак, 2013. – Б. 184. 7. Янчук С.Л. Экономическая и социальная география. Учебное пособие. – Т.: Ijod-Press, 2019. **IX. Qo‘shimcha adabiyotlar** 1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston tarqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. –Toshkent: O‘zbekiston, 2023. – B. 440. –ISBN987-9943-7951-6-7 2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – B.488. 3. Головин А.А., Головин А. А., Пархомчук М. А. Экономическая география и регионалистика мира: учебное пособие / А.А. Головин, А.А. Головин, М.А. Пархомчук. – СПб.: ИЦ Интермедия, 2019. – С. 144. 4. Голубчик М. М. Социально-экономическая география. –М.: Юрайт, 2020. – 476 с. 5. Окунев И. Ю. Политическая география: Учеб. пособие для вузов / И. Ю. Окунев. – М.: Изда- тельство Аспект Пресс, 2019. – С. 512. 6. Путырский В.Е. Политическая география: учебник для вузов/ В.Е.Путырский. - Москва: Издательство Юрайт, 2021. –395с.-(Высшее образование). – ISBN978-5-534-03775-3. 7. Солиев А.С., Маҳамадалиев Р. Иқтисодий ва ижтимоий география асослари.-Т.: Universitet. 2005. –B. 156. 8. Qurbonov Sh.B., Fedorko V.N. O‘zbekiston geografiyasi // O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. –T.: Universitet. 2023. – B. 404. **O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI**

	1. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda) 2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 - yil 6 – noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim - tarbiya va ilm - fan sohalarini rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida” gi PF - 6108 - son farmoni. **Axborot manbaalari** 1. http://www.edu.uz–O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi sayti. 2. http://demography.narod.ru. 3. http://scholar.urc.ac.ru:8001/LANG=ru/courses/Geo_rus/index.html.ru 4. https://vk.com/away.php?to=http%3A%2F%2Fdata.worldbank.org%2F&utf=1 5. www.lex.uz 6. www.undp.org/popin/popin.html 7. www.stat.uz 8. https://www.geogr.msu.ru/education/vo/prog_distc/programs_3xx/bak_G/ 9. https://vk.com/away.php?to=http%3A%2F%2Fcisstat.com%2F&utf=1 10. http:www.uzedu.uz – O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi sayti. 11. http://www.gov.uz– O‘zbekiston Respublikasi xukumati portali. 12. www.pedagog.uz 13. http://www.ziyonet.uz/ 14. http://window.edu.ru/window/www.astronet.ru 15. t.me/geograflar_kutubxonasi - geografiya faniga oid ilmiy adabiyotlar kanali
7.	Fan dasturi Samarqand davlat pedagogika instituti o‘quv-uslubiy kengashining 2025 yil “___” _____ ____-son bayonnomasi bilan ma’qullangan
8.	**Fan/modul uchun mas’ullar va dastur mualliflari:** O.I.Sherxolov – Samarqand davlat pedagogika instituti Geografiya kafedrasi dotsenti v.v.b (PhD)
9.	**Taqrizchilar:** F.A.Xamroyeva - Samarqand davlat pedagogika instituti Geografiya kafedrasi dotsenti (ichki) M.R.Usmonov - Sharof Rashidov nomidagi SamDU Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya kafedrasi mudiri, g.f.d (DSc), dotsent (tashqi)

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan 2025-yil uchun tasdiqlangan xalqaro e’tirof etilgan tashkilotlarning (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education, Academic Ranking of World Universities) reytingida 94 o‘rinni egallagan Moskva davlat universitetning geologiya fakulteti Geografiya yo‘nalishi («Социально-экономическая география зарубежных стран» dasturi tahlil qilinib ushbu asosda fan dastur ishlab chiqildi.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining dasturi tayyorlanib 2 ta mavzusi yangilandi https://www.geogr.msu.ru/education/vo/prog_distc/programs_3xx/bak_G/b_G_segzs_Vvedenie_v_soc.-econ._geogr._zarub._stran_2023.pdf

Fan dastur Tabiiy fanlar fakultetining 2025-yil 23-apreldagi 2-sonli farmoyish bilan tuzilgan ishchi guruh tomonidan maqullangan.

Tuzuvchi: **O.I.Sherxolov**

Kafedra mudiri: **F.A.Xamroyeva**

Fakultet dekani: **U.N.Mirzayev**

O'quv-ishlar bo'yicha prorektor: **H.Musulmonov**

Samarqand pedagogika instituti Tabiiy fanlar fakulteti "Geografiya" kafedrasi v.b. dotsenti O.I.Sherxolov tomonidan tayyorlangan "Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya" o'quv fan dasturiga

TAQRIZ

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fani boshqa fanlar bilan bog'liq bo'lgan ta'lim jarayonida muhim ahamiyatga ega fan hisoblanadi. Fan dasturi Geografiya bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalariga mo'ljallangan ushbu fan dasturi Davlat ta'lim standartlari bo'yicha ta'lim mazmuni, ya'ni fanning maqsad va vazifalari, ma'ruza mashg'ulotlari mavzulari va ularning qisqacha mazmuni, amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar, mustaqil ta'lim mazmuni, fan o'qitilishining natijalari, ya'ni talabalarda shakllanadigan kompetensiya, ta'lim texnologiyalari va metodlari, talabalaming kreditlarni olishlari uchun qo'yiladigan talablar, foydalangan adabiyotlar ro'yxati kabi qismlarni o'z ichiga oladi.

Mazkur fan dasturi fanning nazariy asoslarini to'liq qamrab olgan va har bir mavzu bo'yicha talabalar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar keltirib o'tilgan bo'lib, dasturning amaliy mashg'ulot qismi talabalarning nazariy jihatdan egallagan bilimini amaliy mustahkamlashga qaratilgan mavzularni o'z ichiga oladi. Berilgan metodik tavsiyalar amaliy mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish talablariga javob beradi hamda mazkur dasturda ta'lim berishning pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish va har bir darsni o'qitishda zamonaviy AKT.ni qo'llash jihatlariga ham alohida e'tibor qaratilgan.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fani bo'yicha har bir mavzuga annotatsiya, fanning mazmuni va vazifasi, amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar, mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular, fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar), Ta'lim texnologiyalari va metodlari hamda kreditni olish uchun talablar, asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati berilgan. Dasturni tuzishda geografiya ta'lim yo'nalishi uchun ishlab chiqilgan malaka talablari asosida fan dasturi ishlab chiqish va tadbiq etish tartibiga rioya qilingan.

"Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya" o'quv dasturi OTM uchun 1-kursi me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanib, mazkur fan bo'yicha ishchi dasturni ishlab chiqish va rasmiylashtirishda namunaviy fan dasturi sifatida qo'llaniladi hamda tegishli fan bo'yicha ta'lim-tarbiya jaryonini tashkil etish va o'tkazilishiga qo'yiladigan talablarni belgilaydi. "Geografiya" kafedrasi v.b. dotsenti O.I.Sherxolov tomonidan tuzilgan ushbu fan dasturi belgilangan tartibga mos keladi va undan o'quv jarayoniga foydalanish mumkin.

Samarqand davlat pedagogika Institute Geografiya kafedrasi mudiri, dotsent: **F.A. Xamroyeva**

Samarqand davlat pedagogika instituti Tabiiy fanlar fakulteti "Geografiya" kafedrasi v.b. dotsenti O.I.Sherxolov tomonidan Geografiya ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabalari uchun tuzilgan "Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya" o'quv fan dasturiga

TAQRIZ

Bugungi kunda Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fani talabalarga Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaga kirish, Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning fanlar tizimida tutgan o'rni, Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining rivojlanish tarixi, Fanning tadqiqot usullari, Ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirishning klassik nazariyalari, Iqtisodiy geografiyaning asosiy ustun tushunchalari, Ishlab chiqarishning ijtimoiy va hududiy tashkil etish shakllari, Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishga ta'sir etuvchi omillar, Tabiiy resurslar geografiyasi, Aholi – Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning obyekti sifatida, Global migratsion jarayonlar, Geourbanistika, Qurilish tarmoqlari geografiyasi, Sanoat geografiyasi, Qishloq xo'jaligi geografiyasi, Transport geografiyasi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, Servis geografiyasi, Iqtisodiy geografiya va mintaqaviy iqtisodiyot, Siyosiy geografiya va mintaqaviy siyosat, Iqtisodiy geografiya va ekologiya, O'zbekistonda Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining rivojlanishi haqida bilimlar berishdan iborat.

"Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya" fani boshqa fanlar bilan bog'liq bo'lgan ta'lim jarayonida muhim ahamiyatga ega fan hisoblanadi. Fan dasturi Geografiya bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalariga mo'ljallangan ushbu fan dasturi Davlat ta'lim standartlari bo'yicha ta'lim mazmuni, ya'ni fanning maqsad va vazifalari, ma'ruza mashg'ulotlari mavzulari va ularning qisqacha mazmuni, amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar, mustaqil ta'lim mazmuni, fan o'qitilishining natijalari, ya'ni talabalarda shakllanadigan kompetensiya, ta'lim texnologiyalari va metodlari, talabalaming kreditlarni olishlari uchun qo'yiladigan talablar, foydalangan adabiyotlar ro'yxati kabi qismlarni o'z ichiga oladi.

Mazkur fan dasturi fanning nazariy asoslarini to'liq qamrab olgan va har bir mavzu bo'yicha talabalar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar keltirib o'tilgan bo'lib, dasturning amaliy mashg'ulot qismi talabalarning nazariy jihatdan egallagan bilimini amaliy mustahkamlashga qaratilgan mavzularni o'z ichiga oladi. Berilgan metodik tavsiyalar amaliy mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish talablariga javob beradi hamda mazkur dasturda ta'lim berishning pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish va har bir darsni o'qitishda zamonaviy AKT.ni qo'llash jihatlariga ham alohida e'tibor qaratilgan.

Muallif tomonidan yaratilgan "Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya" fan dasturi Malaka talablari asosida yozilgan, o'quv rejalariga to'liq mos keladi. Ushbu namunaviy fan dasturi "Geografiya" ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, fan dasturni nashr qilishga loyiq deb hisoblayman.

SamDU Ijtimoiy-iqtisodiy
geografiya kafedrasi mudiri, g.f.d (DSc): **dots. M.R.Usmonov**